

TURKISTON QO‘MITASI OZIQ-OVQAT MUAMMOSI YECHIMI YO‘LIDA

Valiyeva Nafisa Abdumajitovna

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti

nafisavaliyeva6@gmail.com +998905539181

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21886120>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiston qo‘mitasining mintaqada yuzaga kelgan oziq-ovqat muammosini bartaraf etish borasidagi faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Birinchi jahon urushi va undan keyingi siyosiy-iqtisodiy inqiroz sharoitida oziq-ovqat ta‘minotining izdan chiqish sabablari, qo‘mita tomonidan amalga oshirilgan taqsimot, ta‘minot va nazorat choralari hamda ularning samaradorligi tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, markaziy hokimiyatning oziq-ovqat siyosati, mahalliy aholining ijtimoiy ahvoli va iqtisodiy qiyinchiliklarning boshqaruv tizimiga ta‘siri tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari Turkiston qo‘mitasining oziq-ovqat inqirozini yumshatish yo‘lidagi faoliyatini tarixiy nuqtai nazardan baholash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Turkiston qo‘mitasi, oziq-ovqat muammosi, oziq-ovqat ta‘minoti, Turkiston o‘lkasi, Birinchi jahon urushi, iqtisodiy inqiroz, taqsimot siyosati, g‘alla ta‘minoti, ijtimoiy siyosat, tarixiy manbalar.

Аннотация. В статье рассматривается деятельность Туркестанского комитета по решению продовольственной проблемы в регионе. Анализируются причины продовольственного кризиса в условиях Первой мировой войны и последовавшего социально-экономического кризиса, меры Комитета по организации снабжения, распределению продовольствия и контролю за его поставками. Особое внимание уделено продовольственной политике центральной власти, социально-экономическому положению местного населения и влиянию кризиса на систему управления. Исследование основано на исторических источниках и позволяет объективно оценить деятельность Туркестанского комитета в сфере продовольственного обеспечения.

Ключевые слова: Туркестанский комитет, продовольственная проблема, продовольственное обеспечение, Туркестанский край, Первая мировая война, экономический кризис, распределение продовольствия, зерновое снабжение, социальная политика, исторические источники.

Abstract. This article examines the activities of the Turkestan Committee in addressing the food crisis in the region. It analyzes the causes of food shortages during the First World War and the subsequent socio-economic crisis, as well as the Committee's measures to organize food supply, distribution, and control. Particular attention is given to the food policy of the central authorities, the socio-economic conditions of the local population, and the impact of the crisis on the administrative system. Based on historical sources, the study provides an objective assessment of the Turkestan Committee's efforts to mitigate the food crisis in Turkestan.

Keywords: Turkestan Committee, food crisis, food supply, Turkestan Region, First World War, economic crisis, food distribution, grain supply, social policy, historical sources.

Turkiston Rossiya tomonidan zabt etilgandan keyin, asrlar davomida o‘zini-o‘zi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlab kelgan o‘lka aholisini g‘alla ekishni qisqartirish hisobiga, keskin ravishda paxta ekishni ko‘paytirishga yo‘naltirildi. Rossiya imperiyasi uchun Turkiston paxtasi harbiy-strategik ahamiyatga molik bo‘ldi. O‘lka Rossiya tasarrufiga kiritilgandan so‘ng asta-sekin asosiy e‘tiborni an‘anaviy ekinlarni, xususan, oziq-ovqatda eng muhim o‘rin tutgan g‘alla mahsulotlarini ekishni qisqartirish hisobiga, imperiya to‘qimachilik sanoatida muhim bo‘lgan paxta ekishga qaratildi. Bu jarayon Rossiya tomonidan Turkistonni istilosidan keyin asta-sekin boshlangan bo‘lsa-da, XIX asr oxiri-XX asr boshlaridan, mumkin qadar, unumdor yerlardan paxta hosilini yig‘ishtirib olishga qaratildi.

Rossiyaning Birinchi jahon urushi (1914-1918) yillarida ishtiroki Turkiston paxtasiga bo‘lgan talab va ehtiyojni yanada kuchaytirib yubordi. Urush tufayli, o‘n yillar davomida Rossiya, Kavkazorti g‘allasiga bo‘lgan qaramlik yanada kuchayib, o‘zaro aloqalarni izdan chiqqani yaqqol namoyon bo‘la boshladi. Rossiyadan g‘alla keltirish keskin qisqarib, Turkistonda ocharchilik[1] hamda qahatchilik[2] hukm sura boshladi. Urush boshlanishi pulning qadrsizlanishiga olib keldi.

G‘allani saqlash, pulni saqlashdan ko‘ra qadrliroq bo‘la boshladi. 1916 yil 23 sentyabridan oziq-ovqat ta‘minotidagi muammolar tufayli g‘allaga qat‘iy narx belgilandi va buning natijasida, g‘allasi borlar, uni yashirishga tushdilar. 1916 yil oxiriga kelganda g‘alla talab va taklif orasidagi farq 600 mln. Pud[3] ni

tashkil qildi. Shundan kelib chiqib, Rossiya Davlat duması raisi Rodzyanko 1917 yili imperatorga oziq-ovqat razvyorstkasi siyosati to'la-to'kis barbod bo'lganini bildirdi. Bor g'allani ham taqsimot va qat'iy belgilangan narxdan qo'rqib, quloq[4] va pomeshchiklar o'z omborlaridan chiqarmay, “yaxshi kunlar va erkin narx belgilanib qolishini” kutdi. Chunki 1916 yildagi g'allaning erkin narxi, qat'iy belgilangan narxdan 3 barobar ko'p edi. Hokimiyat tepasida kelgan Muvaqqat hukumat, zudlik bilan oziq-ovqat razvyortkasini e'lon qildi.

Shunday tahlilali damlarda o'lkada o'z faoliyatini boshlagan Turkiston qo'mitasi oldidagi eng muhim vazifalardan biri, u ham bo'lsa, davom etayotgan urushda harbiylarni oziq-ovqat bilan ta'minlashda uzilishlarga yo'l qo'ymaslik, o'lka aholisini o'rtasida boshlangan ocharchilikni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish edi. Boshqacharoq ifodalaganda, Turkiston aholisi o'zi och bo'lgan holda... urushda ishtirok etayotgan harbiylarning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qo'llab-quvvatlashga mahkum bo'lib, mazkur masaladagi barcha tashkiliy masalalar Turkiston qo'mitasi zimmasida edi.

Turkistonda oziq-ovqat muammosi yechimida, joylardagi och aholining ko'payib borayotgani, ammo holatni kundan-kunga ko'payib borayotgani, ammo holatni o'zgartirish amri-mahol bo'layotgani qayd etilgan. Masalan, mintaqadagi ocharchilik dahshati xususida, “Najot” gazetasi 1917 yil 28 aprelida bergan ma'lumotiga ko'ra, “aholi ochlikdan qutulish uchun xotun-bolalarin sotib Afg'onistonga ko'charlar... Marg'inon-“Jamiyati xayriya” tarafidan ochlar uchun ochilgan oshxona go'zal natijalar ko'rsatmakda, faqir xalq ehsonli zotlardan g'oyat mamnudir. [1916] 28 dekabrda 14-nchi yanvargacha 30678 so'm 96 tiyin [ko'mak] yig'ilib, 14951 so'm 65 tiyin xarajat qilingan” deyiladi.[5]

Ko'rinib turibdiki, Turkistonda ocharchilik, oziq-ovqat muammosi 1916 yildayoq boshlanib, joylardagi milliy tashkilotlar tomonidan hali 1917 yil fevral inqilobi bo'lmasidan avvalroq xayriya yordamlari boshlangan edi. Ammo fevral inqilobi ham, aniqrog'i Muvaqqat hukumat va uning tarkibi o'z faoliyatini boshlagan Turkiston qo'mitasi ham, o'lka bo'ylab kundan-kunga o'z qamrovini kengaytirib, aholini o'z domiga tortib borayotgan ocharchilikni bartaraf etishda ojiz edilar. Masalan, Turkiston qo'mitasi o'lkadagi ocharchilik muamosini hal etish yo'lida ko'rgan, dastlabki chora-tadbirlaridan biri, joylardagi tub aholisini oziq-ovqat muammosiga emas, balki Muvaqqat hukumatdan ocharchilik muammosi yechimida mablag'dan yordam berishini so'rab.... Avvalo bu “Prjevalsk uездidagi rus aholisining ko'rgan zararlari (Xitoydan qaytayotgan qochoq qirg'iz-qozoqlar tomonidan ruslar bilan ixtiloflar)ni qoplash uchun sarf qilinadi...[6]

Buning uchun [Turkiston] qo'mitasi 10 million so'm berishni so'rab... So'ngra hamma qirg'izlarga yordam bermoq uchun yana 5 million so'm so'raydi. Turkiston qo'mitasiga ko'ra, qirg'izlarning yerlari bosib olingani uchun ocharchilik boshlanib ketgani sababli, “Prjevalsk uezdi qochoqlarini qirg'izlarga qaraganda ikki barobar ko'p yordam olishlari kerak edi”.[7] Turkiston qo'mitasi raisi N. N. Shepkin o'lkadagi oziq-ovqat taqchilligini bartaraf etish bo'yicha Muvaqqat hukumatga aprel-may oylarda telegramma yuborib, joylarda oziq-ovqat ta'minoti tangligiga e'tibor qaratib, “Turkistonda oziq-ovqat masalasi juda mushkul ahvolda. Qurg'oqchilik natijasida ochlik boshlandi. Bir pud unning narxi 24 so'mga chiqdi, may oyida berish uchun hech qanday oziq-ovqat yo'q...” deb qayd etgan. Ayni paytda Turkiston qo'mitasi oziq-ovqat tangligini yengillashtirish yo'lida, bo'sh yotgan yerlarga to'q dehqonlar... yordami bilan g'alla ekishga qaror qildi.[8]

Turkiston qo'mitasi tomonidan olib borilayotgan sa'y-harakatlar, 1917 yil fevral inqilobidan keyin izdan chiqqan o'zaro aloqalarni tezda tiklash imkonini bermadi. O'lkada vujudga kelgan ocharchilikni bartaraf etishda, faqat Turkiston qo'mitasida najot kutish, kutilgan natijani bermasligiga ishonch hosil qilgan milliy-siyosiy tashkilotlar aholini ocharchilik azob-uqubatlaridan qutqarishda keskin chora-tadbirlar ko'rish qo'lidan bordilar.

Xususan, 1917 yil 6 iyunda “Hurriyat” gazetasida chop etilgan ma'lumotga ko'ra. “Sho'roi Islomiya” tomonidan qabul qilingan qarorda, aholi o'rtasida non va non mahsulotlari bo'yicha munosabat bildirib, unda quyidagilar belgilangan:

1. Vujudga kelgan oziq-ovqat taqchilligini bartaraf etish yuzasidan, musulmon aholisi nonvoylari oliy navli nonlarni bir qadog'ini[9] yetmish besh tiyindan ortig'iga sotmasin.
2. Xonadon-uyda pishirilgan non va “Osiyo” nonlarining qadog'ini yetmish besh tiyindan ortiqqa sotmasin.
3. Joylarda o'tirib sotadigan nonfurushlar oldida tarozisi bo'lsin (Nonning og'irligini, zarurat deb topilsa, o'lchash uchun-N.V.).
4. Yo'lma-yo'l, ko'tarib va o'tirib non sotuvchilar zimmasida: agar xaridor nonni tarozida tortib olmoqni istasa, bemalol tortib bersin.

5. Belgilansinki, nonvoyxona egasi tomonidan pishgan va kuymagan nonnigina sotuvga chiqarsin. Nonlar achchiq undan yopilmasin va uning ta'mi sho'r bo'lmasin.[10]

Lekin oziq-ovqat muammosi orqaga chekinmay, ahvol kundan-kunga og'irlashib boraverdi.

Turkiston qo'mitasi o'z faoliyatini boshlashga ulgurib-ulgurmasidan, o'lkada vujudga kelgan oziq-ovqat muammosini yechish zaruriyati bilan to'qnashdi. Xususan, 1917 yil 20 aprelida Turkiston qishloq xo'jaligi jamiyati, Qishloq xo'jaligi kasaba uyushmalari xodimlari, Yer ishlari ittifoqi Toshkent va uezd ijroiya qo'mitasining birlashgan majlisi o'tkazilib, unda Turkiston qishloq xo'jaligi jamiyati prezidenti R. Shreder ma'ruza qilib, o'lkada oziq-ovqat taqchilligi natijasida ocharchilik vujudga kelgani, holat kundan-kunga og'irlashib borayotgani to'g'risida gapirdi. O'lkada vujudga kelgan bu ayanchli holat yuzasidan, yaqinda o'z faoliyatini boshlagan Turkiston qo'mitasiga murojaat qilib, o'lka boshqaruviga kirishgan qo'mitaga ocharchilik sabablarini izhor qilib, quyidagilarni bildirildi:

-ob-havo noqulay keldi. 1916-1917 yil qishi va joriy yil bahorida deyarli yog'ingarchilik bo'lmadi;

-shu yil mart oyi oxiri va aprel oyida sovuq tushib, harorat muzlashga bordi va birdaniga issiq kelib, g'alla ekinlari nobud bo'ldi;

-daryolarda suvni kamligidan hayvonlar qirilib ketdi;

-vujudga kelgan holat tufayli sabzavot va uzumchilik amalda keskin qasqarib ketdi;

-birlashgan majlis Turkiston qo'mitasidan zudlik bilan yordam berish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishni Muvaqqat hukumatdan so'rash zarur deb hisoblaydi;

-o'lkada “Ocharchilikka qarshi kurash va boquvchisizlik” (“Ocharchilik qo'mitasi”) komissiyasi tuzish kerak.[11]

Yuqorida qayd etilgan birlashgan majlis yana 27 aprelda o'z ishini davom ettirib, oziq-ovqat muammosi bo'yicha 7 punktdan iborat qo'shimcha qaror qabul qilgan. Mazkur qarorda, Turkiston qo'mitasi tomonidan zudlik bilan oziq-ovqat muammosi yechimi uchun “Maxsus jamg'arma” tashkil qilish zarur deb hisoblab, ushbu jamg'arma hisobidan ajratiladigan pulni qishloq xo'jaligida faoliyat olib boradiganlar va aholi o'rtasida foizsiz foydalanishga berish so'ralgan.

Shuningdek, Turkiston qo'mitasi aholisining iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun may oyi (1917)dan kredit inspeksiya, kooperativlar va boshqa jamoat tashkilotlari tashkil qilishni so'ralgan. “Maxsus jamg'arma”dan ajratilgan mablag'ning taqsimoti bilan shug'ullanish Turkiston qo'mitasi vakillari, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi turli tashkilotlar: Turkiston qishloq xo'jaligi jamiyati, yer ishlari bo'yicha ittifoqi, Qishloq xo'jaligi kasaba uyushmalari ittifoqi va boshqalar hamda oziq-ovqat qo'mitalarining o'lka, viloyatlardagi ijroiya qo'mitalari, turli jamoat tashkilotlaridan iborat komissiya zimmasiga yuklatilishi kerakligi qayd etilgan.[12]

Shuningdek, och aholi uchun oziq-ovqat tayyorlash va uning taqsimotini uyushtirish, hayvonlarga yem-xashak tayyorlash ishlarini tuziladigan “Ocharchilikka qarshi kurash va boquvchisizlik” (“Ocharchilik qo'mitasi”) qo'mitasi o'z faoliyatini keng miqyosda: ovul, qishloq va qishloq jamiyati va boshqalarda olib borib, o'z faoliyatini yuritishda joylardagi oziq-ovqat tashkilotlari bilan yaqindan aloqani olib boradi. Aholini oziq-ovqat bilan ta'minoti yo'lidagi vazifalarni bajarishda o'z vakolati doirasidan chetga chiqmasligi, xususan, mahalliy hamda umumiy miqyosda musodara qilish bilan shug'ullanmasligi kerak deb qayd etilgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. – Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти (ЎЗМЭ),. 2007. – Б. 162.

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Бешинчи жилд. – Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти (ЎЗМЭ), 2008. – Б. 271.

3. Абуллаев М., Мўминов Х. Ўзбекистон тарихидан атамаларнинг изоҳли луғати. - Тошкент.: “Turon zamin ziyo”, 2014. - Б.167.

4. Бекмуҳаммедов Х. Ю. Тарих терминларининг изоҳли луғати. -Тошкент: “Ўқитувчи”, 1986. - Б. 127.

5. Туркистонда очарчилик. Қаҳатчилик. 1917-1924 йилларда Туркистон матбуотида очарчилик ва қаҳатчилик муаммосининг ёритилиши. Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. -Б. 16

6. Вахабов М. Ташкент в период трех революций. Ташкент: Государственное издательство Узбекской ССР, 1957. -С. 154

7. Вахабов М. Ташкент в период трех революций. Ташкент: Государственное издательство Узбекской ССР, 1957. -С. 154

8. Абдуллаев М., Мўминов Х. Ўзбекистон тарихидан атамаларнинг изоҳли луғати. - Тошкент.: “Turon zamin ziyo”, 2014. - Б.256
9. Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар I жилд. Тошкент: “Akademnashr”, 2018. - Б. 476
10. Расулов А., Режаббоев Н. Туркистонда очарчиликка қарши кураш (1917-1924). Тошкент: JAVONIR-NASHR, 2025. -Б. 30-31
11. Расулов А., Режаббоев Н. Туркистонда очарчиликка қарши кураш (1917-1924). Тошкент: JAVONIR-NASHR, 2025. -Б. 31